INTENSIV OLMA BOG'LARIGA YOZGI VA KUZGI SHAKL BERISH ORQALI HOSILDORLIKKA TA'SIRI

RAXIMOV DILYORBEK RAFIQOVICH

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari insituti " intensive sabzavotchilik bog'dorchilik uzumchilik va issiqxona xo'jaliklari" kafedrasi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola olma bog'lariga yozgi va kuzi shakl berish orqali xosildorlikni oshirish yo'llarini tadqiq etadi. Bugunlik kunda olmaga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda sababi olma tarkibida inson organizimi uchun kerakli bo'lgan juda ham ko'p vitaminlar mavjud. Shuning uchun nafaqat yurtimiz hududida balki butun dunyo bo'yicha ham olma istemoli yildan-yilga ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: intensiv, olma, bog', bog'dorchilik, shakl.

Respublikamizda keyingi 6 yil ichida 32 ming gektardan ortiq yerda intensiv usulidagi urug‘li bog‘lar tashkil qilindi. Bu bog‘larning ko‘chatlari asosan dastlabki yillarda Serbiya, Turkiya va Polsha mamlakatlaridan olib kelindi.Intensiv bog‘larni afzalligi bu daraxtlarning tanasi kichik bo‘lganligi uchun ular bilan ishlash qulay (ishlov berish, sug‘orish, kesish, shakl berish, dori sepish va mevani terish). Bunday bog‘larda daraxt tanasiga yorug‘lik tushishi, havo aylanishi yaxshi bo‘lganligi uchun mevasini sifati yuqori bo‘ladi. Mevasini terishda ham ancha qulayliklar bor, ayniqsa simbag‘azga olingan bog‘larda narvon ishlatmasdan hosil teriladi, bunda ish unumli, yuqori bo‘lishi bilan birga terilgan mahsulotning tovar sifati ham yuqori bo‘lib, nobud bo‘ladigan mevalar soni kamayadi.Intensiv bog‘larning hosildorligining yuqoriligini ta’minlashda, tuproqni doim oziqlantirib turish zarur. Buning uchun har yili 30–40 t chirindi, 240–260 kg azot sof holda, 120–150 kg fosfor sof holda va 60–70 kg kaliy sof holda solib turiladi.Ushbu agrotexnik jarayonlar o‘z vaqtida o‘tkazilsa, har gektar maydondan 4–5-yili 50–60 t hosil olishga erishiladi.Ma’lumki, yurtimizning iqlim sharoitida pakana payvandtaglarga ulangan ko‘chatlarning turlari va navlariga qarab, parvarish ishlarini olib borishlari talab etiladi.Intensiv mevali bog‘larni tashkil etish hamda ularni parvarish qilish uchun quyidagilar tavsiya etiladi.Ko‘chat ekish uchun maydonni tayyorlash. Kuzda ko‘chat ekish uchun tanlab olingan maydon plantaj plugi bilan 50–60 sm chuqurlikda haydalgan bo‘lishi kerak. Agarda maydon haydalmagan bo‘lsa, bahorda 35–40 sm chuqurlikda yer haydalib, tekislanib, ko‘chat ekish uchun reja tortiladi. Reja tortishda ekiladigan ko‘chat turlariga qarab, pakana payvandtakka ulangan olma ko‘chatlari 3,5×2,5 m, o‘rta o‘suvchi 3,5×3 m, nok ko‘chatlari uchun 3,5×2 m, o‘rta o‘suvchi 3,5×2,5 m, MM-106 payvandtakka ulangan o‘rta o‘suvchi ko‘chatlarda olma 6×4 m, 6×5 m, nok uchun 5×3 m, 5×4 m sxemalari tavsiya etiladi.Olinadigan hosildorlikni miqdori faqat nav va payvandtagdan, agrotexnika saviyasidan emas, balki o‘simliklarning qator orasi va daraxt oralig‘iga ham bog‘liq.Maydonda qancha ko‘chat ko‘p bo‘lsa, hosil shuncha ko‘p bo‘ladi, lekin daraxtlarning joylashish zichligining ham chegarasi bor. Bu daraxtlarning hajmiga va qator oralarining texnika bilan ishlov berish darajasiga ham bog‘liq. Hosilni sifati va miqdoriga daraxt tanasiga tushadigan yorug‘likni sifati va miqdoriga ham uzviy bog‘liq.Ko‘chat ekish. Ko‘chat ekiladigan chuqurlarni chuqurligi va kengligi 60×60 sm bo‘lib, chuqur qazishda tuproq ustining 20–25 sm qismi chuqurning bir tomoniga olib, chuqurning qolgan qismi ikkinchi tomonga olib

qo‘yiladi. Chuqurga ko‘chat ekishdan oldin 350–400 g fosforli, 30–40 g kaliy o‘g‘iti hamda 8–10 kg chirigan go‘ngni tuproq bilan aralashtirib solib, keyin ko‘chat ekiladi.Ko‘chatni ekishdan oldin alohida tayyorlangan shatmoqqa (yangi mol go‘ngi tuproq bilan 1:1 nisbatda qaymoqsimon qilib tayyorlanadi), botirib olib ekiladi. Ko‘chat chuqurga qo‘yilib, oldin olingan tuproq chuqur tagiga solinib, ildiz payvand qilingan joyi tuproqdan 4–5 sm yuqorida bo‘lishi kerak. Ko‘chat ekilgandan so‘ng har bir chuqurga to‘latib suv quyiladi. Bunda tuproq zichlanib, ko‘chat yaxshi ko‘karadi. Tuproq cho‘kkandan so‘ng ko‘chat atrofiga tuproq solib to‘ldiriladi.Ko‘chatlarni parvarishlash.[1:1]

Intensiv bog'larni hosildorligini oshirish uchun mevalarga ikki mavsumda ya'ni yozda va kuzda shakl beriladi. Sababi bog'lardagi mevalarga yaxshi quyosh tushishi va shamol bog' ichida erkin aylanishi uchun va hosildorlikni oshirish uchun. Shakl berish yiliga ikkimarta o'tkaziladi yozgi va qishki. Qishda yani daraxtlarning tinim paytida. Qishki kesish daraxtlarni bahorgi gullsh davriga tayyorlash hisoblanadi. Va ishlov berish ishlari yozda ham o'tkaziladi qachonki mevalarni yeg'im- terim ishlari tugagandan keyin.Ammo bazi olma turlari sentabr oyida pishishi mumkun bu turlarga esa esa kuzda shakl beriladi.

Daraxtlarga shakl berishda ortiqcha, raqobatchi, bir-biriga yaqin masofada bo‘lgan shoxlar olinadi. Mahalliy bog‘lar bilan intensiv bog‘lardagi daraxtlarga shakl berish ishlari orasida farq bor. Mahalliy bog‘larda asosan simbag‘azsiz tizimlardan foydalaniladi. Ularda daraxtlarning 70% shoxlari muvozanatni saqlash uchun qoldiriladi. Intensiv bog‘larda esa simbag‘az bo‘lganligi sababli, faqatgina mevali va keyingi yilga meva berishi mumkin bo‘lgan shoxlargina qoldiriladi.[2:2]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://telegra.ph/Intensiv-bog-va-tokzorlar-barpo-etish-yaroqsiz-bog-va-tokzorlarni-rekonstruksiya-qilish-meva-va-uzum-kochatlarni-ekish-va-parvar-05-28

2. https://www.agro.uz/hosil-olish-uchun-intensiv-boglarda-agrotexnik-tadbirlar/

3. https://kun.uz/uz/news/2018/09/01/agro-house-intensiv-bogdorcilik-bujica-bogbonlar-va-fermerlar-ucun-seminar-utkazdi

4. .H.H Qo’shiyev, F. Sh Ergasheva, ‘’Anorchilik’’ oliy ta’lim muassasalari bakalavriyat bosqichi 5410200- Anorchilik ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik , Guliston 2021.